

NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI VA ULARNING ALOQA JARAYONIDAGI ROLI

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich
ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-g guruh talabasi
Djumamuratova Farangiz*

Annotatsiya: Bu maqolada ta'sirli nutq tuzish malakalari, ya'ni nutq madaniyati, uning asosiy tushunchalari, nutqning kommunikativ sifatlarining turlari va ularning aloqa jarayonidagi roli haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, nutqning kommunikativ sifatlari, to'g'rilik, aniqlik, boylik, soflik, mantiqiylik.

Biz o'zbek tilining yer yuzidagi qadimiy va boy tillardan biri ekanligini juda yaxshi bilamiz. Uning ko'lamli va muhtasham so'z xazinasi, tovushlar rang-barangligi va mantiqiy-grammatik boyligi qiyossizdir. Ajdodlarimiz tomonidan bu tilda yaratilgan aql va badiiyat durdonalarining bashariyat tamadduniga qo'shgan muazzam hissasi buning isboti bo'lib kelmoqda. Albatta, bu adoqsiz iftixorga munosibdir.

Muborak hadisi shariflarda «Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilidadir» deyiladi. «Odobning boshi til» ekanligini Mahmud Koshg'ariy bobomiz «Devonu lug'otit turk» kitobida maqol tarzida qayd qilgan. Yusuf Xos Hojib bobomiz esa «Qutadg'u bilig» asarida «til ardam» (nutq odobi) haqida bir qancha go'zal hikmatlarni keltirib o'tgan. Bizda, bizning madaniyatimizda latif so'zga oshuftalik, nutq latofatidan zavqlanish, ona tilida ta'sirli nutq ayta oluvchiga aylricha havas bilan qarash azaliy urflardan hisoblangan. Sharqda, xususan, o'zbeklarda so'z bilan tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabit eta bilish tarbiyalilikning, ziyolilikning belgilaridan biri sanalgan. Zotan, nutqning go'zalligi, nutqiy ifodaning aniqligi, rasoligi inson uchun o'ziga xos husn bo'lib, u millatning, jamiyatning umumiyligi kamolotini shakllantiradi. Ajdodlarimiz qoldirgan hikmat durdonalari bo'lmish maqollarda inson nutq tuzishga e'tiborli bo'lishga da'vat etiladi, nutqning musallam o'rnini topib so'zlash talab qilinadi. Jumladan: «O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir», «Qopib emas, topib gapir», «So'z qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas» va hokazo.

Biz til haqida hech qanday ilmiy ma'lumotga ega bo'lmasakda, uning fikr ifodalovchi vosita ekanligini, dunyoni bilish, bilim va ko'nikmalar o'rganish, ularni saqlash va keyingi avlodga yetkazib berish kabi vazifalarni bajarishini juda yaxshi bilamiz. Bu xususiyatlarning barchasi muhim. Lekin tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi vosita sifatida qarasak noto'g'ri bo'ladi. Biz ushbu

maqolada nutqimizning go'zal va betakrorligini oshiruvchi nutqning kommunikativ sifatlari haqida aytib o'tamiz.

Nutqning madaniyligini ya'ni ta'sir quvvatini ta'minlaydigan to'g'rilik, aniqlik, soflik, boylik, mantiqiylilik, ifodalilik kabi bir qator sifatlar mavjud. Bu sifatlarni mujassamlashtirgan nutq madaniy nutq hisoblanadi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, nutq ,avvalo, to'g'ri bo'lishi kerak. Agar nutq to'g'ri bo'lib, boshqa sifatlardan yiroq bo'lsa, bunday nutqni madaniy deb bo'lmaydi. Va aksincha, boshqa sifatlarning barchasi bo'lib, to'g'rilik sifati bo'lmasa ham nutq madaniy hisoblanmaydi. Nutq madaniy bo'lishi uchun to'g'rilik sifati bilan bir qatorda kommunikativ sifatlarning barchasi bo'lishi darkor. To'g'rilik sifati eng dastlabki tushuncha bo'lib, boshqa sifatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Har qanday nutqning asosiy maqsadi, so'zlovchining o'z fikri va tasavvurini tinglovchiga aniq va ravon yetkazib berishdan iborat. Bunday nutq tuzish uchun bizda bir qancha sifatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: to'g'rilik, aniqlik, ifodalilik, boylik, soflik, mantiqiylilik va jo'yalilik. Eng avvalo, nutqning kommunikativ sifatlarining markazi hisoblangan to'g'rilik sifati bilan tanishamiz. Nutqning to'g'riliqi bu- nutq tarkibi va qurilishining adabiy til me'yorlariga to'la mos kelishidir. Adabiy til me'yorlariga mos kelmaydigan nutq to'g'ri bo'lmaydi. O'zbek tilida leksik (so'z qo'llash) me'yor, talaffuz me'yorlari, so'z yasalishi me'yorlari, morfologik me'yorlar, sintaktik me'yorlar va uslubiy me'yorlar farqlanadi. Kundalikli so'zlashuv jarayonida biz adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashamiz, lekin badiiy adabiyotlarda obraz yaratish maqsadida, manzaralarni go'zal va maftunkor ifodalash maqsadida adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari kuzatiladi. Misol tariqasida Shukur Xolmirzayevning asaridan olingan parchaga nazar solamiz: "Hademy bir-ikkita sovlig'im qo'zilaydi. Og'iz ichgali bemalol tashrif buyurishlaring mumkin". Bu yerda leksik me'yor va morfologik me'yorlardan uzoqlashilgan, boisi asarda yoritilayotgan qahramonning xarakteri, yashash muhiti, uning boshqa obrazlardan o'zgachaligi adibning badiiy mahorati bilan ko'rsatib berilgan.

Nutqning aniqligi, so'zning ma'nosini bilish bilan tamomila bog'liq. Aniq nutq tuzish uchun, so'zning til qurilishidagi ma'nosini, voqeа-hodisa bilan bog'liqligini va so'zning qaysi o'rinda qo'llanishini aniqlab olish lozim. "Avlodlar merosini o'rganamiz". Gapdagи "avlod" so'zining ma'nosiga e'tibor qaratamiz. Avlod- arabcha tildan olingan bo'lib, bola degan ma'noni bildiradi. Ko'rindiki, bu yerda nutqning aniqlik sifatiga putur yetgan. Aslida esa, "Ajdodlar merosini o'rganamiz" bo'lishi kerak edi. Biz xohlasak ham, xohlamasak ham avlodlarimizning merosini o'rgana olmaymiz.

Fikr tarkibi va qurilishining to'g'ri ifodalaniishi nutq mantiqiyligining asosidir. Nutqda til vositalarining mantiq va to'g'ri tafakkur qonuniyatlariga mos tarzda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini yuzaga keltiradi. Ana shunga ko'ra mantiqiylilik sifati nutqda so'zlar, gaplar o'rtasidagi mazmuniy va grammatik aloqalarning fikr

mohiyati hamda uning rivojlanib borishiga qat'iy mosligi tarzida ta'riflanadi. Keling, nutqning mantiqiyligi tushunchasini misol tariqasida ko'rib chiqamiz. "Traktor va mashinalar yelday uchadi". Gapni mantiqiy jihatdan tahlil qilamiz. Mashina tez harakatlanishi va yelday uchishi mumkin, lekin traktor bunday xususiyatga ega emas. Demak, mantiqiy qarama-qarshilik, ziddiyat nutqning mantiqiyligining buzilishiga olib keladi.

Nutqning sofligi - bu adabiy til qoidalariga yot bo'lgan unsurlardan xoliligidir. Shu o'rinda adabiy til tushunchasiga ham ta'rif berib o'taman. Adabiy til deganimiz, milliy tilning tartibga solingan, shevalardan va turli tuman ishlamaydigan, parazit so'zlardan yiroq bo'lib, hamma uchun tushunarli bo'lgan, ma'lum qolipga solingan tildir. Nutqning sofligiga shevalar, parazit so'zlar, ishlamaydigan so'zlar va shu kabilar putur yetkazadi. Shuning uchun nutq tuzayotganda bu kabi unsurlardan fordalanmasligimiz kerak.

Nutq ta'sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo'lishi zarur. Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so'zlar, ularning ma'nolari, so'z birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib bo'lmog'i talab etiladi. Bu zaxira qancha boy bo'lsa, notiq o'z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko'proq ega bo'ladi. Nutqning boyligi sifati boshqa uslublarga qaraganda, badiiy uslubda alohida o'rin tutadi.

Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz kerakki, yuqorida sanalgan sifatlarning barchasi nutqimizning madaniy bo'lishiga yordam beradi. Har qanday madaniy nutq o'z tinglovchisini topadi. Insonlarda yaxshi taassurotlar qoldiradi. So'zimni buyuk mutaffakirimiz Hazrati Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridan olingan iqtibos bilan yakunlayman: "Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror topti, dilkash emas". Shunday ekan, o'z nutqimizni asl va ma'noli so'zlar bilan bezaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ona tili" 11-sinflar uchun darslik Toshkent-2018
2. "Ona tili" Madrim Hamroyev Toshkent-2018
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2006-2008yillar